

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"



Namangan to'qimachilik sanoati
instituti rektori

Q.M. Xoliqov

28 08 2024 yil

"SERVISDAGI JARAYONLARNI LOYIHALASH"

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	700 000	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	720 000	Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta'lim yo'nalishi:	60721400	Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari (xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi)

Namangan-2024

Fan/modul kodi SJL2003.05		O'quv yili 2024-2025	Semestr 6	ECTS – kreditlar 6
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Servisdagi jarayonlarni loyihalash	90	90	180
I. Fanning mazmuni: Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga to'qimachilik sanoati tarmoqlari turlari, ip yigirish sanoatida foydalaniladigan xom ashyolar turlari, ishlab chiqariladigan yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, qo'llaniladigan jihozlar va texnologik jarayonlarni hamda sohaning ilmiy-texnik rivojlanish yo'llari, ularni rivojlantirishdagi asosiy qoidalarni o'rgatish, olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat; - to'qimachilik sanoatida to'qima ishlab chiqarishning texnika va texnologiyalarini rivojlanishi, to'qima ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va unda qo'llaniladigan dastgohlar, tuzilishini o'rganish, yangi to'qima assortimentlarini ishlab chiqish, to'quv korxonalarida amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish; - talabalarga ipakchilik sohasini to'qimachilik sanoatida tutgan o'rni, texnika va texnologiyalarni, ishlatiladigan xom ashyolar, ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlar, ajralib chiqadigan ipak chiqindilari va tola chiqindilari hamda ularni qayta ishlash texnika va texnologiyasini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat; - talabalarga – trikotaj sanoatini rivojlanishi, trikotaj halqasini tuzilishi, halqa hosil qilish jarayoni va uning usullarini, trikotaj to'qimalarini tuzilishi va shakllanishini, naqshli trikotaj turlarini, ularni hosil bo'lishi, turli xil trikotaj ishlab chiqarish usullarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat; Fanning vazifasi – ushbu maqsadga erishish uchun talabalarining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari ishlab chiqarish sharoitida qo'llash hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.				

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari):

6-semestr

1-mavzu. Servis tushunchasi haqida ma'lumot. Tola tozalagich servis jarayonini loyihalash*

Servis tushunchasi haqida ma'lumot. Korxonalar va jihozlar servis tizimining xarakteristikasi. Servis xizmatida asosiy terminlar. Tola tozalagichlar turlari va ularni tuzilishi, tola tozalagichlarga qo'yiladigan texnologik talablar. Tola tozalagichlarning texnologik parametrlarini hisobi.

2-mavzu. Momiq ajratgichlarning servis jarayonini loyihalash

Momiq va tuk ajratgichlarga qo'yiladigan texnologik talablar. Ularning konstruksiyalari. Momiq va tuk ajratgichlarga servis xizmat ko'rsatishning

3-mavzu. Tola va momiqni presslash uskunasiga servis jarayonlarini loyihalash

Presslash uskunalarning vazifalari va ishlab chiqarishdagi o'rni. Presslash jarayonida shibbalagichlar, ularning ishdan chiquvchi qismlari. Presslash qurilmasining tuzilishi, ishdan chiquvchi qismlari va ularga servis xizmat ko'rsatish. Presslash qurilmasini moy bilan ta'minlovchi nasoslarning tuzilishi, ularga servis xizmat ko'rsatish

4-mavzu. Paxta tozalash korxonalariga servis xizmati ko'rsatuvchi ustaxonalarni loyihalash asoslari

Arra tishlarini ta'mirlash texnologiyasi. Arra tishlarini qirqish. PTA-M2 avtomatik ko'p sharoshkali arra charxlagichi. SPX arraga tish chiqarish dastgohi. Arra tishlaridan qilovini chiqarish dastgohi. Arralarni silliqlash uchun VP qum vannasi

5-mavzu. Servis xizmati ko'rsatuvchi payvandlash detallarni plastmassa bilan qoplash asboblarni charxlash va ularni taqsimlash bo'limlarini loyihalash

Asbobsozlik ustaxonasini loyihalash. Tunukasoqlik ustaxonasini tashkil qilish. Quvursozlik ustaxonasini loyihalash. Elektryuritmalarni ta'mirlash ustaxonasi

6-mavzu. Servis xizmati ko'rsatuvchi asbobsozlik, quvursozlik elektr yuritmalarni ta'mirlash ustaxonalarini loyihalash

Payvandlash ustaxonasini vazifasi va uni ish dasturini hisoblash.

Plastmassa quyish va plastmassa bilan qoplash ustaxonasini loyihalash. Charxlash ustaxonasini vazifasi. Asbob taqsimlash bo'limini loyihalash

7-mavzu. Yigirish korxonalariga servis servis xizmatini ko'rsatuvchi ta'mirlash mexanika ustaxonasini loyihalash*

Yigiruv ishlab chiqarishni ta'mirlash-mexanika ustaxonasi bo'limlari. Texnologik jihozlarni ta'mirlashni rejalashtirish. Jihozlarni ta'mirlash va mehnat hajmi

8-mavzu. Tarash mashinalariga servis jarayonlarini loyihalash

Tarash mashinalari uzellarini ta'mirlash ustaxonasi. Maxsus ustaxonalarni ish dasturini hisoblash. Shlyapkalarni charxlash ustaxonasidagi jihozlar. Ta'minlovchi barabanlar, kard-tarash mashinalarini tarash va differensial uzellarini ta'mirlash ustaxonasi

9-mavzu. To'quv korxonalariga servis xizmati ko'rsatuvchi ustaxonalarni loyihalash asoslari

To'quv korxonalarini ustaxonalari. To'quv stanoklarini uzellarini ta'mirlash ustaxonasi. Jihozlarni stendda ta'mirlash ustaxonasi

10-mavzu. Trikotaj mashinalariga servis jarayonlarini loyihalash

Texnologik mashinalar tanlashda qo'yiladigan talablar. Trikotaj mashinalari ishchi organlari detallarini galvanik qoplama berish yo'li bilan tiklash texnologiyasini ishlab chiqish. Trikotaj texnologik mashinalari detallarini azotlash yo'li bilan qoplama berish rejimlari

11-mavzu. To'quv dastgohi turini tanlash

Mashina turini tanlash va asoslash. Texnologik jarayon ketma-ketligini tanlash. To'quv dastgohlarini ishlab chiqaruvchi xorijiy firmalar

12-mavzu. Tanlangan texnologik uskunalarning tavsiflari

Tanlangan texnologik jarayonlarning o'timlari. Qayta o'rash uskunolari, ularga tavsif. Mokili dastgohlar uchun arqoq iplarini qayta o'rash. To'quv dastgohida o'rnatiladigan arqoq ipini qayta o'rovchi «Lisson» (AQSH) firmasining Yunifil avtomati. Ohor tayyorlash va ohorlash uskunolari, ularga tavsif, parametrlarini hisoblash. To'quvchilik dastgohlari

13-mavzu. Texnologik jarayonlar bo'yicha omillarni tanlash va asoslash

To'qimaning ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlarni tanlash. To'qimaning ishlab chiqarish texnologik jarayonlarga

(uskunalarini tanlash) va ularni asoslash. Jihozlarni tanlash

14-mavzu. To'quv korxonalariga servis xizmati ko'rsatuvchi ustaxonalarni loyihalash asoslari

To'quv korxonasi binosi. Ustunlararo masofasini tanlash. To'quv dastgohlarini va tayyorlov-saralash bo'limi uskunalarini joylashtirish

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi

Urchuq tasmasini o'lchash, kesish va birlashtirish jarayonlarini o'rganish, urchuqlarni ta'mirlashni o'lchash va moylashni tashkil qilish.

Yigirish mashinalari halqalarini tozalash, jilvirlash va tiklashda servis xizmati.

Tarash mashinalariga servis jarayonlarini loyihalash.**

Halqali yigirish mashinalariga servis jarayonlarini loyihalash.

Pnevmo yigiruv mashinalariga servis jarayonlarini loyihalash.

To'quv dastgohiga servis jarayonlarini loyihalash.**

Tikuv mashinalariga servis jarayonlarini loyihalash.

Yigiruv mashinalarini taranglovchi rolik va yurituvchi barabanlarini ishlash jarayonini o'rganish va ularga xizmat ko'rsatish.

Urchuq tasmasini o'lchash, kesish va birlashtirish jarayonlarini o'rganish.

Texnologik jarayonlari omillarini tanlash va hisoblash.**

To'quv korxonasi binosini va ustunlarni tanlash. To'quv korxonasi binosini tanlash va ustunlararo masofani va dastgohlarni joylashtirish hisobi.

Omborlar va yordamchi xonalarning yuzasini hisoblash. Xom ashyoni omborga joylashtirish hisobi.

Uskunalarining muvofiqligi hisobi. Jarayonlardan chiqadigan yarim tayyor mahsulotlarni keyingi jarayon uchun muvofiqligini aniqlash.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Piliklash mashinasini ishchi holatini tahlil etish va sozlash

Halqali yigirish mashinasini ishchi holatini tahlil etish va sozlash**

Pnevmomexanik yigirish mashinasini ishchi holatini tahlil etish va sozlash

Yigirish mashinalarining elastik qoplamalarini bosuvchi valiklarini tiklashni o'rganish

Tarash mashinasi ishchi holatini tahlil etish va sozlash

To'quv dastgohini ishchi holatini tahlil etish va sozlash**

Tikuv mashinasini ishchi holatini tahlil etish va sozlash

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar:

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Pilik tayyorlash, piliklash mashinalariga servis xizmati ko'rsatish.
 2. Pilikni pishitish va o'rash jarayoniga servis xizmati ko'rsatish.
 3. Piliklash mashinasiga xizmat ko'rsatish va sifat nazorati.
 4. Ip tarangligi va yugurdakka ta'sir etuvchi kuchlar.
 5. Halqali yigirish mashinalariga servis xizmati ko'rsatish, ip uzilishi va sifatini nazorati.
 6. Pnevmomexanik usulda ip yigirish jarayonida servis xizmati ko'rsatish.
 7. Pnevmomexanik ip yigirish mashinalariga xizmat ko'rsatish, ipdagi nuqsonlar va ularning tasnifi.
 8. Tarash mashinasining ishchi qismlarini ta'mirlash jarayoni.
 9. Urchuqlarni moylash, moylash usullari va servis xizmati ko'rsatish
- Mashinalarga servis xizmati ko'rsatishda yigirish mashinalari g'altaklarini almashtirishni avtomatlashtirish.

* Indian Institute of Technology Delhi (IITD). Manufacturing Processes-II.

** Home Textile NT MCHJ.

VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

– servis korxonalarida texnik tizimlarni boshqarish va tashkil etish; servis korxonalarida mahsulot sifatini nazorat qilish usullarini qo'llash; ta'mirlash sexlarini loyihalash va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, ulardan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish strategiyasini belgilash va qo'llash; tizimli yondashuv mexanizmlarini tatbiq etish; dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi va injeneriyasi; aholini ijtimoiy muhofaza qilishning samarali shakllarini tatbiq etish; kompyuter texnologiyalari va dasturlash; mehnat resurslaridan oqilona

	foydalanish va ularni samarali boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish; korxonada mahsulot sifatini yaxshilash choralarini ko'rish kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi; - paxta to'qimachilik va engil sanoati korxonalarida qo'llaniladigan texnologik mashina va jihozlarga servis xizmat ko'rsatish jarayonlari va ularni loyihalash asoslari to'grisida tasavvurga ega bo'lishi; - servis xizmatida extiyot qismlari bilan ta'minlash tizimini, ishlab chiqishda montaj turlarini, texnik ekspluatatsiyani rejalashtirish, zaxira qismlar va ularni boshqarishni, ta'mirlashda hujjatlarni, jihozlarni ta'mirlashni rejalashtirishni va tashkil qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi; - paxta, to'qimachilik va yengil sanoati korxonalarida servis jarayonlarini loyihalash, servis korxonalarini turlari va klassifikatsiyasini, servis xizmatida texnologik jarayon va montaj vazifalarini, montaj texnologiyasi va hujjatlarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.		
3.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: <table> <tr> <td> • ma'ruza; • interfaol case-studylar; • tajriba mashg'ulotlari; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar o'tkazish; - kognitiv texnologiyalar; </td><td> • testlar; • shaxsga yo'naltirilgan texnologiya; • loyihalar ustida ishlash; • masalalar yechish; • muammoli masalalar </td></tr> </table>	• ma'ruza; • interfaol case-studylar; • tajriba mashg'ulotlari; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar o'tkazish; - kognitiv texnologiyalar;	• testlar; • shaxsga yo'naltirilgan texnologiya; • loyihalar ustida ishlash; • masalalar yechish; • muammoli masalalar
• ma'ruza; • interfaol case-studylar; • tajriba mashg'ulotlari; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar o'tkazish; - kognitiv texnologiyalar;	• testlar; • shaxsga yo'naltirilgan texnologiya; • loyihalar ustida ishlash; • masalalar yechish; • muammoli masalalar		
4.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: - fanga doir nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirishi; - tahliliy xulosalar qila bilishi; - fan bo'yicha mustaqil fikrlay olishi; - joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini o'z vaqtida, talab darajasida bajarish; - yakuniy nazoratni ijobiy bahoga topshirish.		
5.	Foydalanilgan adabiyotlar Asosiy adabiyotlar 1. S.S. Xodjayeov. S.X.Babadjanov «Servisdagi jarayonlarni loyihalash», Darslik. –T, TTYeSI 2015. 289 b. 2. A.A. Xudayberdiyev, O.T. Mamatqulov. Servis texnika va texnologiyalari. O'quv qo'llanma. 2023 y. -136 b. 3. M.A. Babadjanov. Korxonalarini loyihalash. Darslik. –T.:TTESI,		

	2015. -266 bet. 4. S.X. Babadjanov, O.T. Olimov. Korxona servisi texnika va texnologiyasi. O'quv qo'llanma. 2015 y. -156 b. 5. Q.J. Jumaniyozov, Q.G'. G'ofurov, S.L. Matismailov. To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari. Darslik. T.: G'.G'ulom, 2012. - 297 b. Qo'shimcha adabiyotlar 6. Аванесова Г.А. Сервисная деятельность. Учебное пособие. - М.: Аспект-Пресс. 2005. – 224 с. 7. Худых М.И. Ремонт текстильных машин. -М.: Легпромбыт. 1991. – 288 с. Axborot manbalari: 8. http://www.ziyonet.uz – Ta'lim portal. 9. https://hemis.ntsi.uz/ 10. http://solution-textile.ru/services.html 11. https://www.studmed.ru/bragina-zv-glushkova-eb-dudyashova-vp-servisnoe-obsluzhivanie-tekstilnogo-proizvodstva_62a3d894402.html 12. https://www.studmed.ru/sycheva-v-o-servisnaya-deyatelnost_90e8c4c385f.html 13. https://www.dissercat.com/content/nauchnye-osnovy-tekhnicheskoi-ekspluatatsii-tekstilnykh-mashin
	Fanning o'quv dasturi Namangan to'qimachilik sanoati instituti o'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "<u>26</u>" <u>08</u> "<u>1</u>"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
	Fan/modul uchun mas'ul: A.A.Umarov – Namangan to'qimachilik sanoati instituti "Sanoat muhandisligi" kafedrasi dotsenti, PhD.
	Taqrizchilar: Sh. Usmonov Namangan to'qimachilik sanoati instituti "Sanoat muhandisligi" kafedrasi dotsenti, PhD. A.Qodirov – "Home textile NT" MCHJ mexanigi.